



QURILISH, UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VA
QURILISH MATERIALLARI SANOATI SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

METALL VA TEMIR-BETON KONSTRUKSIYALARI MONTAJCHISI



“Metall va temir-beton konstruksiyalari montajchisi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Metall va temir-beton konstruksiyalari montajchisi

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0039



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Temirbeton konstruksiyalar yig'uvchisi", "Po'lat va temir beton konstruksiyalar montajchisi", "Metall konstruksiyalarni yig'ish bo'yicha chilangar" va "Qurilish-montaj ishlari ustasi" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

Shuningdek, mazkur standart tashkilotlarda kadrlar boshqaruvi tizimini takomillashtirish, mehnat vazifalarini belgilash, malaka talablarini aniqlash va sertifikatlash ishlarini amalga oshirishda asosiy me'yoriy manba sifatida xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblash-tirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabr “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5577-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabr “O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6119-son Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgust “Ma'muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-151-son Farmoni.

Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT 2.1 – Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

SHHV – Shaxsiy himoya vositalari.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Metall va temir-beton konstruksiyalari montajchisi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Bino va inshootlarni qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, restavratsiya qilish va qayta tiklashda beton va metall konstruksiyalarni o'rnatish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	
3.	IFUT 2.1 bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	F seksiyasi Qurilish 43 Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 43.2 Elektrotexnik, chilangarlik va boshqa qurilish-montaj ishlari 43.24 Boshqa qurilish-montaj ishlari 43.24.0 Boshqa qurilish-montaj ishlari	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Po'lat va temir beton konstruksiyalarini montaj qilish bo'yicha xodimlarning tegishli ish funksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan malakasiga qo'yiladigan talablar aks ettirilgan.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		71140 Temirbeton konstruksiyalar yig'uvchisi	2
		71140013 Po'lat va temir beton konstruksiyalar montajchisi	3
		72141001 Metall konstruksiyalarni yig'ish bo'yicha chilangar	3
		71140 Qurilish-montaj ishlari ustasi	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	71140 Temir beton konstruksiyalar yig'uvchisi	A1.2	Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishda bir qator tayyorgarlik va yordamchi ishlarni bajarish	A1.01.2	Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishdan oldin tayyorgarlik ishlarini olib borish
				A1.02.2	Montaj qilish joyida konstruksiyalarni yig'ish, tahlil qilish yoki taxlash, shuningdek xomashyo va materiallarni, jihoz va asbob uskunalarini tanlash
				A1.03.2	Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni yig'ish va o'rnatishda yordamchi ishlarni bajarish
2	71140013 Po'lat va temir beton konstruksiyalar montajchisi	B1.3	Binolar va inshootlarning konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish	B1.01.3	Binolar va inshootlarning po'lat va temir-beton konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish
				B1.02.3	Binolar va inshootlarning po'lat va temir-beton konstruksiyalarini montaj o'rnatish ishlarini amalga oshirish
				B1.03.3	Binolar va inshootlarning murakkab konstruksiyalarini montaj qilish ishlarni bajarish
3	72141001 Metall konstruksiyalarni yig'ish bo'yicha chilangar	D1.3	Ish o'rnini tashkil qilish hamda asbob- uskunalarni tanlash va samarali ishlatish	D1.01.3	Ishchilarni yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarini belgilash hamda metall-konstruksiyalar yig'ishda ishlatiladigan asbob-uskunalarini tanlash
				D1.02.3	Ish o'rnida ishchilarning xavfsiz harakatlanishini belgilash
		D2.3	Metall-konstruksiyalarni yig'ish montaj qilish va ta'mirlash	D2.01.3	Metall-konstruksiyalarini o'rnatish
				D2.02.3	Metall-konstruksiyalarini o'rnatish uskunalarini ta'mirlash
4	71140 Qurilish-montaj ishlari ustasi	E1.5	Qurilish montaj ishlarini tashkil etish	E1.01.5	Qurilish montaj ishlarini tashkil etishga tayyorgarlik ishlari
				E1.02.5	Qurilishi maydonida qurilish-montaj ishlarini bajarilishini jadal (operativ) boshqarish
		E2.5	Qurilish va montaj ishlarini amalga oshirish va faoliyatini boshqarish	E2.01.5	Obyektlarni qurilish va montaj ishlariga tayyorlashni boshqarish
				E2.02.5	Qurilish-montaj ishlarida konstruksiyalarning o'rnatilishi (montaj) jarayonini operativ boshqarish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Temirbeton konstruksiyalar yig'uvchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71140	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ustoz rahbarligida amaliy o'quv jarayonidan o'tgan, kamida 3-6 oylik ish amaliyotiga ega bo'lishi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak.</p> <p>Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi.</p> <p>Texnik hujjatlar va chizmalarni o'qish.</p> <p>Qurilish asboblari va uskunalaridan foydalanish.</p> <p>Metall materiallarga ishlov berish.</p> <p>Montaj va izolyatsiyalash ishlarini amalga oshirish.</p> <p>Muammoli holatlarni hal qilish.</p> <p>O'z bilimi, tajribasi va v akolati doirasida qarorlar qabul qilish.</p> <p>Belgilangan vazifalarni ish vaqtdan unumli va oqilona Foydalangan holda bajarish.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va Elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.</p> <p>O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish.</p> <p>Jamoa bilan inoq ishlash.</p> <p>O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Umumiy o'rta ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Tayanch o'rta ta'lim va ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Ish joyini po'lat va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishga tayyorlash bo'yicha ishlarni bajarish va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish	
	2. Po'lat, temir-beton konstruksiyalarni o'rnatish uchun yuk ko'tarish moslamalarini ishga tayyorlash va texnik xizmat ko'rsatish.	

A1.2- Po'lat va temir- beton konstruksiyalarni o'rnatishda bir qator tayyorgarlik va yordamchi ishlarni bajarish	A1.01.2- Po'lat va temir- beton konstruksiyalarni o'rnatishdan oldin tayyorgarlik ishlarini olib borish	3. Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni montaj joylarini mahkamlash (o'rnatish, qisish va mahkamlash).
		3. Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni yig'ishda o'ziyurar kranlarni o'rnatish uchun shpal asosini qurish.
		4. Po'lat va temir-beton konstruksiyalarni yig'ish uchun o'rnatilgan ko'targichlar va qo'lda tutqichli mahkamlash, ochish va sinovdan o'tkazish.
		5. Konstruksiya o'rnatilishi kerak bo'lgan joylarga belgi qo'yish (razmetka qilish).
		6. Asos (fundament) holatini ko'zdan kechirish, zarurat bo'lsa, to'g'rilash ishlarini amalga oshirish.
		7. Qurilish maydonidagi ish joyini tozalash, konstruksiyalar uchun platformalarni tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Montaj ishlari uchun asbob-uskuna, jihoz, vosita va buyumlarini tanlash.
		Ish turiga qarab belgilanishi bo'yicha qo'l va mexanizatsiyalashtirilgan asboblari qabul qilish.
		Montaj qilinishi kerak bo'lgan joyni tekshirish va tozalash.
		Konstruksiya turini va joylashtirish tartibini aniqlash.
		Mexanik uskunalarni (lom, montaj kaliti, troslar) to'g'ri tanlash va tayyorlash.
		Asosiy elementlar uchun tayanch joylarni (podkladka, vremyanka) tayyorlash.
		Krani yordamida ko'tarish vositalarini tekshirish va to'g'ri o'rnatish
		Po'lat yoki temirbeton elementlarini to'g'ri va xavfsiz joylashtirish.
		Bilimlar:
		Uskunalar va konstruksiyalarni o'rnatish joylarini aniqlash usullari
		Loyihaviy va konstruktiv chizmalarni, montaj sxemalarini o'qish va talqin qilish tartibi
		Qurilish maydonida o'lchov ishlarini olib borish usullari
		Asoslar va tayanch qismlarni tekshirish va tayyorlash (fundament holatini baholash) tartibi
Uskunalar, asboblari va kranlar tayyorligini tekshirish usullari		
Konstruksiya elementlarining sifati va mosligi nazorati		
Qo'llaniladigan montaj vositalarini (boltlar, gaykalar, zaxvatlar, payvandlash uskunalari) tekshirish va tayyorlash usullari		
Kran va maxsus mexanizmlarni ishga tayyor holatga keltirish qoidalari		
Shaxsiy himoya vositalari va ularning turlari		

<p>A1.02.2- Montaj qilish joyida konstruksiyalarni yig'ish, tahlil qilish yoki taxlash, shuningdek xomashyo va materiallarni, jihaz va asbob uskunalarni tanlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Chizmalar asosida konstruksiyalarni belgilangan joyga to'g'ri va aniq joylash.</p> <p>2. Montajga tayyorlash uchun bir necha qismdan iborat elementlarni yig'ib tayyor holga keltirish.</p> <p>3. Birikmalarni (tugunlarini) boltlar, gaykalar, payvand yoki maxsus tutashmalar yordamida mustahkamlash.</p> <p>4. Montaj qilingan konstruksiyani himoya vositalari bilan qoplash (namlikdan himoya).</p> <p>5. Boltli birikmalarni o'rnatish va mustahkamlash.</p> <p>6. Ankerlar va tutash tiqinlarni montaj qilish.</p> <p>7. Ish jarayonida xavfsizlik qurilmalari (tayanchlar, arqonlar, kamarlar)dan foydalanish.</p> <p>8. Kran va mexanizmlar bilan ishlayotganda belgilangan xavfsiz masofaga rioya qilish.</p>
	<p>Ko'nikmalar:</p> <p>Konstruksiya elementlarining o'lchamlari, joylashuvi va birikmalarini aniqlash.</p> <p>Montaj, konstruksiya va uzellar chizmalarini tushunish.</p> <p>Boltli, gaykali va payvandlash usullari bilan konstruksiyalarni aniq joylashuvini ta'minlash va mahkamlash.</p> <p>Ankerlar, tiqinlar va mustahkamlovchi detallarni o'rnatish.</p> <p>Kran balka, payvandlash apparati va boshqa montaj vositalaridan xavfsiz va samarali foydalanish</p> <p>Avariylarning oldini olish va favqulodda holatlarda harakat qilish ko'nikmalari</p> <p>Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish.</p>
	<p>Bilimlar:</p> <p>Po'lat va temirbeton konstruksiyalarni yig'ish va o'rnatish bosqichlari.</p> <p>Konstruksiyalar turlari (fermalar, ustunlar, plita va to'sinlar) va ularning o'zaro bog'lanishi</p> <p>Montajda ishlatiladigan usullar (boltlash, payvandlash, ankerlash).</p> <p>Montajga ta'sir qiluvchi tashqi omillar (namlik, harorat, yuklama) antikorroziya vositalari va himoyalash usullari</p> <p>Montaj, uzel va detallas chizmalarini talqin qilish va montaj sxemalari va ketma-ketligini tushunish.</p> <p>Montaj nuqtalarini aniqlash va to'g'ri joylashtirish usullari.</p> <p>Balandlikdagi ishlar va og'ir yuklar bilan bog'liq xavflar.</p> <p>Favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi.</p>
	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Qurilish maydonini montaj ishlariga mos holatga keltirish</p>

A1.03.2- Po'lat va temir- beton konstruksiyalarni yig'ish va o'rnatishda yordamchi ishlarni bajarish	2. Montaj qilinishi kerak bo'lgan joylarni chang, qoplama, bo'yoq, qo'shimcha materiallardan tozalash.
	3. O'lchov jarayonida joylarni belgilab olish.
	4. Temir beton va po'lat konstruksiya qismlarini montaj joyiga olib kelish.
	5. Elementlarni montaj ketma-ketligiga muvofiq tartib bilan taxlash.
	6. Montaj uchun kerakli asbob va jihozlarni ustalarga o'z vaqtida etkazib berish va to'g'ri ulash.
	7. Bolt, gayka, shaybalarni mahkamlash, ustunlar konstruksiyalarni o'rnatishda yordam berish
	8. Baland joydagi ustalarni bog'lash vositalari bilan ta'minlash.
	Ko'nikmalar:
	Qo'l asboblari va montaj asboblaridan xavfsiz va to'g'ri foydalanish.
	Oddiy konstruksiyaviy chizmalarni tushunish va ularga muvofiq harakat qilish
	Belgilar, o'lchamlar va yo'nalishlarni to'g'ri anglash.
	Jamoa bilan muvofiqlikda ish olib borish.
	Yuk ko'tarish, siljitish va o'rnatishda xavfsiz masofalarni saqlash
	Qoliplar, stropalar, troslar, domkratlar va boshqa yordamchi jihozlar bilan ishlash.
	Balandlikda ishlashda xavfsizlik kamarlari, bosh kiyimlar, qo'lqoplardan to'g'ri foydalanish.
	Bilimlar:
	Temir beton va po'lat konstruksiya turlari, ularning asosiy qismlari (balka, ustun, plita).
	Konstruksiyalarning quvvat, barqarorlik va yuk ko'taruvchanlik xususiyatlari.
	Stropirovka, yuk ko'tarish uskunalari (tros, strop, bloklar);
	O'lchov asboblari va montaj asboblarining tuzilishi va ishlatilish tartiblari
Konstruksiyaviy chizmalar va montaj sxemalari	
Bolt, gayka, anker, shayba va boshqa birlashtiruvchilarning turlari va qo'llanishi	
Armatura, beton va po'lat materiallarining xossalari va qo'llanish sohalari.	
Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Balandlikda, elektr uskunalari bilan va yuqori xavfli muhitda ishlayotganda shaxsiy va jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlik
	2. Shaxsiy himoya vositalarini (belbog', ko'zoynak va h.k.) to'g'ri tanlash, tekshirish va foydalanish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish

		3. Xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlash maqsadida qurilish maydonidagi ehtiyot choralariga to'liq rioya etish
		4. O'zining va atrofidagi xodimlarning xavfsizligini ta'minlashda tashabbuskorlik ko'rsatish va favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish
		5. Har bir ish jarayonida xavf omillarini mustaqil baholash va ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlar taklif qilish
		6. O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik
Texnik va/yoki texnologik talab		<p>Temirbeton konstruksiyalar chizmalar asosida aniq o'lchamda kesish va shakllantirilishi shart.</p> <p>Mahkamlash va izolyatsiya ishlari standartlarga muvofiq, germetik va mustahkam bajarilishi zarur.</p> <p>Asbob-uskunalar tekshirilgan va yaroqli holda foydalanilishi kerak.</p> <p>Barcha jarayonlarda shaxsiy himoya vositalari majburiy tarzda qo'llanilishi lozim.</p> <p>Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlari rejali ravishda va texnik talablarga asosan olib borilishi shart.</p>

Kasbning nomi:	Po'lat va temir beton konstruksiyalar montajchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71140	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	<p>Qurilishda, xususan, po'lat va temir beton konstruksiyalar bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi</p> <p>Balandlikda ishlashda tajriba va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish</p> <p>Chizmalarni o'qish, o'lchov uskunalari va maxsus asboblardan foydalanish tajribasi</p>	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi.</p> <p>Texnik hujjatlar va chizmalarni o'qish qobiliyati.</p> <p>O'lchov va hisoblash qobiliyati.</p> <p>Qurilish asboblari va uskunalaridan foydalanish mahoratlari.</p> <p>Po'lat va temir beton konstruksiyalarga ishlov berish qobiliyati.</p> <p>Montaj va izolyatsiyalash ishlarini amalga oshirish qobiliyati.</p> <p>Muammoli holatlarni hal qilish qobiliyati.</p> <p>O'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish.</p> <p>Belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.</p> <p>O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish.</p> <p>Jamoa bilan inoq ishlash.</p> <p>O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	2) o'rta maxsus ta'lim 3) umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
<p>B1.3- Binolar va inshootlarning konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish</p>	<p>B1.01.3- Binolar va inshootlarning po'lat va temir beton konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish</p>	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Binolarning po'lat va temir beton konstruksiyalarini vaqtincha mahkamlashda ish joyini vazifa va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish.
		2. Montaj qilinuvchi maydonni tozalash va xavfsiz holatga keltirish.
		3. Qolip, ustun va plita konstruksiyalari uchun asos (fundament) ustini tekshirish va tayyorlash.
		4. Qo'llaniladigan uskunalarning sozligini va butligini tekshirish.
		5. Qo'l asboblari, stroplar, boltlar, ankerlar, kran stropirovka jihozlarini o'rnatish jamlash va tekshirish.
		6. Konstruksiyalar joylashtiriladigan nuqtalarni belgilash (razmetka) ishlarini amalga oshirish.
		7. Tekshiruvchi shaxslar yoki muhandislar bilan hamkorlikda montaj joyini qabul qilish.
		8. Tayyorgarlik jarayonida mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish.
		Ko'nikmalar:
		Bino va inshootlarning metall, yig'ma-beton va temir beton konstruksiyalarini o'rnatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarish uchun konstruksiyalarni o'rnatish, yig'ish uskunalari va mahkamlagichlarni tayyorlash.
		Yordamchi ishlarni bajarish uchun qo'llaniladigan qo'lda va mexanizatsiyalashgan asboblarning yaroqliligini aniqlash.
		Qo'l asboblari (bolg'a, ruletka, lom) bilan ishlash.
		Anker boltlarini va tayanch detallarini o'rnatish, gaykalar va shaybalarni to'g'ri tanlash.
		Konstruksiya elementlarini qabul qilish, to'g'ri ajratish va vaqtinchalik joylashtirish.
		Elementlarni kran yordamida joyiga etkazish va xavfsiz transportirovka qilish.
		Qolip, ustun va plita uchun tayanchlarni tayyorlash va o'rnatish.
		Balandlikda ishlash, og'ir elementlar bilan muomala qilishda xavfsizlik qoidalarini amalga oshirish.
		Shaxsiy himoya vositalaridan (kaska, kamar, qo'lqop) to'g'ri foydalanish.
Po'lat va temir-beton konstruksiyalarini vaqtincha mahkamlash bo'yicha ishlarni bajarish uchun mahkamlagichlar va yig'ish moslamalarini o'rnatish.		

		<p>Bilimlar:</p> <p>Ishlarni bajarishda loyihaga muvofiq binolar va inshootlarning po'lat va temir beton konstruksiyalarini vaqtincha mahkamlash bo'yicha ishlarni bajarish usullari</p> <p>Po'lat va temir beton konstruksiyalarni vaqtincha mahkamlash bo'yicha ishlarni bajarishda qo'llaniladigan asosiy armatura va yig'ish uskunalari va qurilmalari turlari.</p> <p>Beton va po'lat konstruksiyalarni yig'ish va o'rnatish jarayonlari</p> <p>Og'ir yuklar bilan ishlashda xavfsizlik choralari</p> <p>Po'lat va temir beton konstruksiyalarni vaqtincha mahkamlashda qo'llaniladigan qurilish konstruksiyalarini o'rnatish va yechish usullari.</p> <p>Qurilish maydonchasida montaj ishlarini bajarishda mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi va xavfsizlik talablari.</p> <p>Qurilish maydonchasidagi baxtsiz hodisada jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish qoidalari.</p>
	<p>B1.02.3- Binolar va inshootlarning po'lat va temir- beton konstruksiyalarini montaj o'rnatish ishlarini amalga oshirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Binolar va inshootlarning temir-beton konstruksiyalarini o'rnatishda ish joyini tozalash va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish. 2. Montaj qilinadigan konstruksiya elementlarini vizual tekshirish (defekt, shikastlanish bo'yicha). 3. O'lchamlarni aniqlash va belgilash (razmetka ishlari). 4. Kraning harakat maydonini tayyorlash va signalchi bilan bog'lanish tizimini ta'minlash. 5. Kran, tallar va lebyodka kabi mexanizmlar yordamida elementlarni ko'tarish va joylashtirish o'rnatish. 6. Har bir og'ir elementni ko'tarish va tushirishda aniq ish harakatlari. 7. Tomlar va pollar uchun yig'ma temir-beton panellar va plitalarni o'rnatish. 8. Qo'lda va mexanizatsiyalashgan vositalar yordamida yig'ma beton va temir betonni ko'tarish, ko'chirish va tushirish. 9. Temir beton konstruksiyalarining tashqi birikmalari uchun sintetik materiallar bilan issiqlik izolyatsiyasini o'rnatish. 10. Balandlikda ishlashda himoya vositalaridan (tros, qo'lqop, kamar) foydalanish. <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Yig'ma beton va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishda qo'llaniladigan qo'lda va mexanizatsiyalashgan asboblarning xizmatga yaroqliligini aniqlash.</p>

		Belgilash (razmetka) ishlarini to'g'ri va aniq bajarish.
		Mexanik birikmalarni (bolt, gayka, anker, qopqoqlar) to'g'ri va xavfsiz o'rnatish.
		Yig'ma beton konstruksiyalarni balandlikda va cheklangan joylarda ko'tarish, tushirish va o'rnatish.
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatishda vaqtinchalik arqon va tirgaklarni mahkamlash va olib tashlash.
		Signal berish va jamoa bilan hamkorlikda xavfsiz ish yuritish.
		Himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish (kaska, kamar, tros, qo'lqop).
		Qurilish maydonchasidagi baxtsiz hodisasi ro'y berganda jabrlanuvchilarga birinchi yordam ko'rsatish.
		Qurilish maydonchasida montaj ishlarini olib borishda mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi va xavfsizlik talablariga rioya qilish.
		Bilimlar:
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni yig'ish va konstruksiyalarni o'rnatish usullari.
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarning elementlarini ulash va mahkamlash usullari.
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarning bo'g'inlarini germetik qilish va ularni yopishtirish usullari.
		Og'ir konstruksiyalarni ko'tarish va tushirish uchun yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatishda ishlatiladigan tutqichlarning turlari.
		Yig'ma beton konstruksiyalarni balandlikda va cheklangan joylarda ko'tarish, tushirish va o'rnatish qoidalari.
		Yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni demontaj qilish xususiyatlari va tartibi
		Qurilish maydonchasida montaj ishlarini bajarishda mehnatni muhofaza qilish, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligi va xavfsizlik talablari.
	B1.03.3- Binolar va inshootlarning murakkab konstruksiyalarini montaj qilish ishlarni bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Murakkab mas'uliyat darajasidagi metall konstruksiyalarni o'rnatishda ish joyini vazifa va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish.
		2. Loyihaga muvofiq asos (fundament) ustidagi tayanch konstruksiya joylashadigan joyni tekshirish va tayyorlash.
		3. Yukni muvozanatda, xavfsiz ko'tarish va joyiga olib o'rnatish.

	4. Uskuna va qurilmalar yordamida elementlarni to'g'ri ulash payvandlash yoki anker orqali bir-biriga mustahkam biriktirish ishlarini amalga oshirish.
	5. Kamchiliklarni aniqlash, zarur holda tuzatish.
	6. Beton va temir-beton konstruksiyalarni o'rnatishdan keyin izolyatsiyalash ishlarini bajarish.
	7. Boshqa mutaxassislar (payvandchi, montajchi, elektrik) bilan hamkorlikda ishlash.
	8. Balandlikda ishlashda muhofaza vositalaridan (arqon, tasma, shlem, straxovka) foydalanish.
	9. Og'ir yuklar bilan ishlashda maxsus signallar, ishoralardan foydalanish.
	Ko'nikmalar:
	Metall, po'lat, yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatishda qo'llaniladigan mexanizatsiyalashgan asboblarning xizmatga yaroqliligini aniqlash.
	Loyiha va montaj chizmalarini tushunish va unga amal qilish.
	Konstruksiya elementlarini joyiga to'g'ri keltirish uchun aniq o'lchamlari, joylashuvi, payvand joylari va o'rnatilishini belgilab olish.
	Balandlikda va og'ir konstruksiyalar bilan xavfsiz ishlash usullarini bilish.
	O'rnatilgan konstruksiyalarning to'g'ri o'rnatilganini aniqlash.
	Kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish.
	Mehnat muhofazasi vositalari (kaska, arqon, jamlovchi vositalar)dan to'g'ri foydalanish.
	Qurilish maydonchasidagi baxtsiz hodisada jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish.
	Bilimlar:
	Metall, po'lat, yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarishda ishlatiladigan asosiy tayanch va yig'ish uskunalari va qurilmalarining tuzilishi va vazifalari. (balkalar, ustunlar, plitalar, ferma va boshqalar)
	Murakkab konstruksiyalarni o'rnatish bosqichlari va usullari.
	Metall, po'lat, yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatish bo'yicha yordamchi ishlarni bajarishda foydalaniladigan qurilmalar yordamida konstruksiyalarni vaqtincha mahkamlash usullari.
	Metall, po'lat, yig'ma beton va temir beton konstruksiyalarni o'rnatish ishlarni bajarishda ularni balandlikda va tor sharoitda ko'tarish, tushirish va o'rnatishda signal berish usullari.

		Kranlar, bloklar, lebyodkalar va ularning ishlash tamoyillari
		Yuklarni to'g'ri bog'lash va ko'tarish usullari.
		Himoya vositalari (kaska, kamar, qo'lqop) qo'llash tartibi.
		Korroziyaga qarshi muhofaza va ishlov berish usullari.
		Balandlikda ishlashda xavfsizlik qoidalari.
Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Binolar va inshootlar konstruksiyalarini o'rnatishga tayyorgarlik ishlarini bajarishda xodim ish hududini tekshirish.
		2. Asbob-uskunalarni tayyorlash, materiallarning holatini baholash va tayyorgarlik jarayonini to'g'ri tashkil etish bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi.
		3. Xavfsizlik talablari va texnik me'yorlarga qat'iy rioya qilgan holda ish jarayonining sifatli va xavfsiz amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.
Texnik va/yoki texnologik talab		<p>Po'lat va temir beton konstruksiyalar chizmalar asosida aniq o'lchamda kesilishi shart.</p> <p>Mahkamlash va izolyatsiya ishlari standartlarga muvofiq, germetik va mustahkam bajarilishi zarur.</p> <p>Asbob-uskunalar tekshirilgan va yaroqli holda foydalanilishi kerak.</p> <p>Barcha jarayonlarda shaxsiy himoya vositalari majburiy tarzda qo'llanilishi lozim.</p> <p>Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlari rejali ravishda va texnik talablarga asosan olib borilishi shart.</p>

Kasbning nomi:	Metall konstruksiyalarni yig'ish bo'yicha chilangar	
Mashg'ulot nomining kodi:	72141	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	<p>Kamida 3–6 oylik ish amaliyotiga ega bo'lish</p> <p>Metall konstruksiyalarni yig'ish, ishlash bo'yicha amaliy tajriba</p> <p>Qurilish obyektlaridagi xavfsizlik qoidalari, balandlikda ishlash va izolyatsiya materiallarini qo'llash bo'yicha tajriba</p> <p>Maxsus asbob-uskunalar bilan ishlash tajribasi bo'lishi</p>	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (yollash bo'yicha) va davriy tibbiy ko'rikdan, shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan o'tish.</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha o'qitish va bilimlarni sinovdan o'tkazish, mehnatni muhofaza qilish ish joyida o'qitish va mustaqil ishlash uchun ruxsat olish.</p> <p>Xavfsizlik talablari bo'yicha o'qitish va bilimlarni sinovdan o'tkazishni yakunlash.</p> <p>Tegishli dastur bo'yicha yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimum bo'yicha o'qitish va bilimlarni sinovdan o'tkazish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	2) o'rta maxsus ta'lim 3) umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	-	
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Ishga qabul qilinganlarni yo'riqnoma o'tkazish.	
	2. Vazifasini belgilash.	
	3. Ish joyida xavf-xatarlar (balandlikda ishlash, og'ir yuklar, o'tkir asboblardan va boshqalar) haqida tushuntirish.	
4. Himoya vositalaridan (kaska, qo'lqop, himoya kiyimi, ochki, arqon) foydalanish.		

D1.3- Ish o'rnini tashkil qilish hamda asbob-uskunalarni tanlash va samarali ishlatish	D1.01.3- Ishchilarni yo'riqnomadan o'tkazish va vazifalarini belgilash hamda metall-konstruksiyalar yig'ishda ishlatiladigan asbob-uskunalarni tanlash	5. Metall konstruksiyalarni yig'ish uchun zarur instrumentlar bolt-qotirgichlar, kalibrlar, yordamchi uskunalar holatini tekshirish.
		6. Ish joyida uskunalarning texnik tuzilishi, ishlash prinsipi bilan tanishish.
		7. Har bir asbob-uskuna va jihozlardan to'g'ri foydalanish usullari.
		8. Xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalarini bilishi.
		Ko'nikmalar:
		Chizma va texnik hujjatlarni tushunish.
		Balandlikda va og'ir yuklar bilan ishlashda xavfsiz usullarni qo'llash.
		Detallarni aniq o'lchash, belgilash va moslashtirish.
		Asboblarni tekshirish, sozligini baholash va ishga tayyor holga keltirish.
		Beton va po'lat konstruksiya qismlarini yig'ish va biriktirish (bolt, zaklyopka, payvand).
		Asbob va jihozlar bilan samarali va aniq ishlash.
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini tushunish va amal qilish.
		Bilimlar:
		Metall konstruksiya turlari va ularning vazifalari (nurlar, ferma, stoyka).
		Konstruksiyalarni yig'ish sxemalari va texnik hujjatlar (chizmalar, spesifikasiyalar, yo'riqnomalar) bilan ishlash.
	Asosiy o'lchov birliklari va o'lchov asboblardan foydalanish.	
	Detallarni o'zaro to'g'ri biriktirish usullari (bolt, payvand, zaklyopka).	
	Ishni boshlashdan oldin mehnat xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar berish tartibi.	
	Yong'in xavfsizligi va birinchi yordam ko'rsatish asoslari.	
	Ish jarayonida sifat nazoratini olib borish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish.	
D1.02.3- Ish o'rnida ishchilarning xavfsiz harakatlanishini belgilash	Mehnat harakatlari:	
	1. Metall-konstruksiyalarini o'rnatishni samarali tashkil etish.	
	2. Balandlikda ishlash uchun xavfsiz maydon va to'siqlarni o'rnatish.	
	3. Sirpanuvchi, yopishqoq yuzalarni tozalash va qulay yurish sharoitini yaratish.	
	4. Payvandlash, kesish, teshish kabi ishlar vaqtida yong'in va tok urish xavfini hisobga olish.	
	5. Og'ir yuklarni ko'tarishda signal berish, ishchilarni ogohlantirish va masofani saqlash.	

		<p>6. Ko'taruvchi mexanizmlarni xavfsiz ishlatish, yuk ostida harakatlanmaslikka rioya qilish.</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Ogohlantiruvchi belgilar, yo'laklar va to'siqlarni to'g'ri joylashtirishni bilish.</p> <p>Xavfsiz harakatlanish uchun talab qilinadigan masofalarni bilish.</p> <p>Yurish yo'llari, ko'tarilish nuqtalari va platformalarni xavfsiz holda tayyorlash</p> <p>Balandlikda va og'ir konstruksiyalar bilan ishlashdagi xavflarni oldindan aniqlay olish.</p> <p>Yuk ko'tarish, payvandlash yoki montaj ishlari vaqtida boshqalarni ogohlantirish.</p> <p>Signal berish, belgilardan foydalanish va xavf haqida ogohlantirish usullarini qo'llash.</p> <p>Mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish.</p> <p>Texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Ish joyida yurish, yuk ko'tarish, payvandlash yoki montaj ishlarida faoliyat olib borish uchun xavfsiz yo'llarni tashkil etish.</p> <p>Balandlikda ishlash, og'ir yuklar bilan ishlashdagi xavflarni kamaytirish usullari.</p> <p>Yuk ko'tarish va montaj jarayonida xavfsiz masofani saqlash bilimlari</p> <p>Og'ir texnika va mexanizmlar bilan ishlashda xavfsiz faoliyatni ta'minlash yo'llari.</p> <p>Signal berish va vizual belgilar orqali ogohlantirish qoidalari.</p> <p>Mehnat muhofaza qilish, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligiga rioya etish.</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Ish o'rnini tashkil qilishda xodim ish joyini tartibga keltirish, xavfsizlik talablariga mos sharoit yaratish va barcha jarayonlarni to'g'ri rejalashtirish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish.</p> <p>2. Asbob-uskunalarni tanlash va ularni samarali ishlatishda esa mos vositalarni to'g'ri aniqlash, ularni toza, soz va xavfsiz holda qo'llash uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish.</p>
D2.3- Metall-konstruksiyalarni yig'ish montaj qilish va ta'mirlash	D2.01.3- Metall-konstruksiyalarini o'rnatish	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Kerakli asbob-uskunalarni tayyorlash va tekshirish.</p> <p>2. Chizmalar va montaj sxemalarini tushunish, qismlarni chizmaga muvofiq aniq joylashtirish.</p> <p>3. O'rnatilishi kerak bo'lgan metall qismlarni tanlash va tayyorlash (tozalash, o'lchash, belgilash).</p> <p>4. Metall-konstruksiyalarini o'rnatish jarayoni.</p>

		5. Kran yoki boshqa ko'taruvchi uskunalar yordamida konstruksiyalarni ko'tarish.
		6. Qismlarni boltlar, gaykalar, parchinmix yoki payvand orqali mustahkam biriktirish.
		7. Ish joyini yig'ishtirish, tozalash va xavfsiz holatda qoldirish.
		Ko'nikmalar:
		Metall-konstruksiyalarini o'rnatish usullari.
		Yig'iladigan konstruksiyaning chizmasi, o'lchamlari va belgilariga asosan ishlash
		Montaj sxemasi bo'yicha qismlarni aniq joylashtirish.
		O'lchov asboblardan (shtangensirkul, ruletka, nivelir) foydalanib aniq ishlash.
		Qismlarni kesish va o'rnatish uchun to'g'ri belgilash.
		Baland joylarda xavfsiz ishlash (belbog', to'siqlar, platforma).
		Jamoa bilan muvofiq ishlash, signal va ogohlantirish belgilariga rioya qilish.
		Bilimlar:
		Metall-konstruksiyalarini o'rnatishning samarali usullari
		Konstruksiyalarni yig'ish va o'rnatishda chizmalar, montaj sxemalari va spesifikasiyalarni tushunish.
		Qismlarni chizmaga muvofiq ravishda joylashtirish va o'lchamlarga rioya qilish.
		Balandlikda ishlash, og'ir yuklar bilan ishlash, xavflarini bilish.
		Xavfsiz harakatlanish, shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish (kaska, belbog', qo'lqop).
		Qo'l va elektr asboblardan (drel, shlifovka, gayka siqish qurilmalari) to'g'ri foydalanish.
		Boltlash, parchin mix bilan biriktirish, payvandlash kabi biriktirish usullari haqida nazariy bilimlar.
	D2.02.3- Metall- konstruksiyalarini o'rnatish uskunalarini ta'mirlash	Mehnat harakatlari:
		1. Uskunaning tashqi holatini ko'zdan kechirish va nosozlik alomatlarini aniqlash
		2. Uskuna konstruksiyasini yechish uchun tegishli asboblarni tanlash va tayyorlash.
		3. Detallarni tozalash, yog'lash yoki kimyoviy moddalar bilan ishlov berish
		4. Shikastlangan detallarni yo'nish, parmalash, burg'ulash yoki ta'mirlash.
		5. Detallarni payvandlash yoki rezba tiklash ishlarini bajarish.
		6. Zarur qismlarni yangisiga almashtirish (podshipnik, vtulka, gayka, shponka).

		7. Ta'mirlangan uskunani ishga tushirishdan oldin sinovdan o'tkazish.
		8. Uskuna qismlarini navbatma-navbat ehtiyotlik bilan yechish va ta'mirlash.
		Ko'nikmalar:
		Aniqlangan muammoga qarab ta'mir usulini belgilash.
		Mexanik shikastlanish, ishqalanish yoki aniq nosozlikni topish.
		Uskunaning ishlash holatini vizual va instrumental tekshirish.
		Detallarni qayta ishlash tozalash, tuzatish, payvandlash, yo'nish, burg'ulash va boshqalar.
		Yengil va o'rta darajadagi mexanik ta'mirlashni mustaqil bajarish.
		Uskuna yoki mexanizmni to'g'ri va xavfsiz yechish (demontaj).
		Ta'mirdan keyin uskunani to'g'ri yig'ish (montaj).
		Uskunani sinovdan o'tkazish va uning ish qobiliyatini baholash.
		Bilimlar:
		Qo'l va elektr asboblarning turlari, vazifalari va to'g'ri ishlatish usullari.
		Ta'mirlash vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar va ularni bartaraf etish choralari.
		Bajarilgan ishlar yuzasidan texnik hujjatlashtirish (jurnallar, hisobotlar) qoidalari.
		Ta'mirdan keyingi sinov tartiblari va normal ishlashni tekshirish usullari.
		Vibratsiya, ishqalanish, ovoz va harorat orqali nosozlikni baholash usullari
		Mexanik ta'mirlash usullari (yo'nish, burg'ulash, parmalash, payvandlash, yig'ish).
		Yechilgan va ta'mirlangan qismlarni qayta yig'ish texnologiyasi.
		Balandlikda ishlash qoidalari va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Metall konstruksiyalarni yig'ish, montaj qilish va ta'mirlashda xodim ishlash jarayonini rejalashtirish. Asbob-uskunalar va materiallarni tayyorlash.
		2. Ishni xavfsiz va sifatli bajarishni mustaqil tashkil qiladi.
		3. Konstruksiyalarning mustahkamligi, barqarorligi va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi hamda texnik me'yorlarga qat'iy rioya qiladi.

Texnik va/yoki texnologik talab	<p>Metall konstruksiyalarni yig'ish ishlari loyiha hujjatlari va aniqlangan texnik nosozliklar asosida amalga oshirilishi kerak;</p> <p>Germetiklashtirish va tiklash ishlari barcha asbob-uskunalar va himoya vositalari texnik ko'rikdan o'tkazilgan, ishlashga yaroqli bo'lishi lozim;</p> <p>Balandlikda, ochiq havoda va xavfli sharoitda ishlayotganda shaxsiy himoya vositalaridan (ShHV) foydalanish majburiy;</p> <p>Bajarilgan ishlarning natijalari texnik pasportga kiritilishi, ta'mirlangan uchastkalar sinovdan o'tkazilishi shart.</p>
----------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Kasbning nomi:	Qurilish-montaj ishlari ustasi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71140	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Qurilish tashkilotlarining asosiy faoliyatini amalga oshiruvchi bo'limlarida 3 yildan kam bo'lmagan amaliy ish tajribasi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, ushbu kasbda faoliyat yuritish uchun shaxs kamida 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tganligi; Ishga munosabat va xulq-atvor: rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; belgilangan vazifalarni ish vaqtdan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; jamoa bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish. Belgilangan me'yorlar va talablarga muvofiq maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish qoidalariga rioya qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta maxsus professional ta'lim	
Norasmiy va norasmiy ta'lim bilan aloqasi:	2) boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqasi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	Mehnat funksiyalarining tavsifi	
Kod va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.5- Qurilish montaj ishlari tashkil etish	E1.01.5- Qurilish montaj ishlari tashkil etishga tayyorgarlik ishlari	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Qurilish maydoni tayyorligini tozaligini muhandislik kommunikatsiyalarini tekshirish.
		2. Ishchi kuchi va texnika vositalarini jalb etish montaj ishlari uchun zarur mexanizmlar, asbob-uskunalar va mutaxassislarni tayyorlash.

		3. Loyiha va texnik hujjatlarni o'rganish qurilish obyektlari bo'yicha reja, sxema va ko'rsatmalarni tahlil qilish.
		4. Material va jihozlarni qabul qilish beton, metall konstruksiyalar va boshqa qurilish materiallarini tayyorlash va to'g'ri joylashtirishni nazorat qilish.
		5. Vaqtinchalik infratuzilmani tashkil etish vaqtinchalik yo'llar, elektr ta'minoti, suv va sanitariya sharoitlarini yaratishni nazorat qilish.
		6. Tashkiliy-maslahat ishlarini olib borish ish rejalarini muhokama qilish, vazifalarni taqsimlash va nazoratni tashkil qilish.
		7. Ishchi xavfsizligi choralarini ko'rish texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma berish, himoya vositalarini ta'minlash.
		8. Qurilish montaj ishlari sifatini tahlil qilish vositalarini ta'minlash.
		9. Qurilish montaj ishlari sifatini yaxshilash bo'yicha tezkor ta'sir chora-tadbirlarini amalga oshirish.
		10. Qurilish ob'ektini qurilishi jarayonida har bir ishchi hamda jamoa mehnat faoliyatini tahlil qilish.
		11. Muhandislik tizimlaridagi murakkab bo'lmagan buzilishlar va nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish.
		Ko'nikmalar:
		Qurilish maydonini tayyorlash va zarur infratuzilmalarni joylashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalar.
		Loyiha hujjatlarini o'qish va tahlil qilish chizmalar, smetalar va ish rejalarini to'g'ri tushunish va ular asosida harakat qilish ko'nikmasi.
		Ishchi guruhlarini tashkillashtirish va boshqarish vazifalarni taqsimlash, ishlar bajarilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish ko'nikmasi.
		Ish jadvallarini tuzish va bajarilishini ta'minlash kalendar reja tuzish va bajarilish jarayonini kuzatish ko'nikmasi.
		Materiallarni qabul qilish va joylashtirish beton, metall konstruksiyalar va boshqa materiallarni saqlash va montajga tayyor holatga keltirish nazorati.
		Texnika va asbob-uskunalarini tanlash va joylashtirish montaj ishlari uchun kerakli texnika vositalarini aniqlash va undan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi.
		Qurilish maydonida lazer, nivelir va boshqa o'lchash uskunalarini ishlatish.
		Qurilish normalari va standartlarini bilish (QMQ, SHNQ DSt) montaj ishlarida qo'llaniladigan texnik qoidalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmasi.
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalarini amalga oshirish va nazorat qilish ko'nikmasi.

		<p>Bilimlar:</p> <p>Turli qurilish-montaj ishlarining ketma-ketligi, usullari va ularni tashkil etish tartibini bilishi.</p> <p>Qurilish mashinalari va mexanizmlari ekskavator, avtokran, beton aralastirgich va boshqa qurilish texnikasining ishlash prinsiplari.</p> <p>Qurilish materiallari va konstruksiyalari metall, beton, temir-beton, yig'ma konstruksiyalar va ularning xususiyatlari, qo'llanish sohalari haqida bilim.</p> <p>O'lchash uskunolari va asboblari nivelir, lazer o'lchov uskunolari bilan ishlash va ularni qo'llash qoidalari bo'yicha bilim.</p> <p>Ishchi guruhlarni tashkil qilish, vazifalarni taqsimlash va ish vaqtini samarali rejalashtirish.</p> <p>Ish hajmini aniqlash, xarajatlarni baholash, hisob-kitob hujjatlari bilan ishlash.</p> <p>Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalari ishchilarni himoya qilish, avariylarni oldini olish va xavfsiz ish sharoiti yaratish bo'yicha bilim.</p> <p>Yong'inga qarshi qoidalar va favqulodda holatlarda harakat qilish tartibi.</p>
	<p>E1.02.5- Qurilishi maydonida qurilish- montaj ishlarini bajarilishini jadal (operativ) boshqarish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Belgilangan ish rejasi va texnologik jadvalga muvofiq ishlar olib borilayotganini kuzatish. 2. Ishchi kuchining o'z vaqtida kelishini va ish jarayonini nazorat qilish tekshirish. 3. Qurilish ishlarining sifatini vizual tekshirish (beton quyish, montaj, payvandlash). 4. Qo'llanilayotgan qurilish materiallarining sifatini tekshirish (GOST yoki shartnoma talablariga muvofiqligi). 5. Ish joylarida o'lchov asboblari nivelir orqali aniqlikni tekshirish. 6. Asbob-uskunalar va texnika vositalarining to'g'ri va xavfsiz ishlatilishini kuzatish. 7. Ishchi guruhlar, ustalar va uchastka rahbarlari bilan ish jarayonini muvofiqlashtirish. 8. Aniqlangan kamchiliklar va texnik nosozliklar bo'yicha dalolatnoma tuzish. 9. Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish va joyida tushuntirish ishlarini olib borish. 10. Ish joyida xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etish. 11. Himoya vositalari (kamar, ko'zoynak)dan foydalanishni nazorat qilish. <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Ish jarayonini kuzatish va baholash har bir ish bosqichini vizual va texnik jihatdan baholay olish.</p>

		Xatoliklarni aniqlash va kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, dalolatnoma yozish va rahbariyatga ma'lumot berish.
		Ishchilar bilan samarali muloqot olib borish tushunarli va aniq ko'rsatmalar berish, kamchiliklarni joyida bartaraf etishni tashkil qilish.
		Guruh ishini muvofiqlashtirish bir nechta ishchi yoki brigada faoliyatini bir vaqtda nazorat qilish.
		Qurilish ishlari texnologiyasini tushunish turli montaj ishlarining (beton quyish, metall konstruksiya o'rnatish, payvandlash) to'g'ri bajarilish tartibini bilish.
		O'lchov asboblari bilan ishlash, nivelir, ruletka va boshqa o'lchov vositalaridan foydalanib aniqlikni tekshirish.
		Loyiha hujjatlarini o'qish va anglash chizmalar, smetalar, texnologik kartalar asosida nazorat ishlarini tashkil qilish.
		Mehnat muhofazasi talablarini nazorat qilish himoya vositalaridan foydalanish, xavfli zonalarda harakat qilish tartibini kuzatish.
		Avariya holatlarini oldini olish xavfli holatni tez baholash va profilaktik choralarni ko'rish.
		Bilimlar:
		Qurilish-montaj ishlari texnologiyasi beton quyish, metall konstruksiyalar o'rnatish, payvandlash, izolyatsiyalash va boshqa montaj turlarining texnik talablari va amalga oshirish tartiblari.
		Qurilish materiallari va konstruksiyalar metall, beton, temir-beton va butlovchi materiallarning sifat talablari, saqlash va qo'llash shartlari.
		O'lchash va nazorat uskunalari nivelir, ruletka kabi asboblardan foydalanish va natijalarni tahlil qilish usullari.
		Loyiha-smeta hujjatlarini o'qish va tushunish chizmalar, texnologik kartalar, ish grafiklari, smetalar bilan ishlash qobiliyati.
		Ishlab chiqarishni tashkil etish asoslari ishchi guruhlar bilan ishlash, vazifalarni taqsimlash, bajarilgan ishlar hajmini baholash.
		Qurilish jarayonlarini qurilish normativlari va standartlariga muvofiq baholash va nazorat qilish uchun zarur bilimlar.
		Mehnat xavfsizligi himoya vositalaridan foydalanish va xavfni oldini olish choralari.
		Bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot va dalolatnomalar tuzish ish jurnalini yuritish, kamchiliklarni hujjatlashtirish va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar.

		<p>Avariya va favqulodda holatlarda harakat qilish tartibi, yong'in va qurilishdagi nosozliklar yoki boshqa xavfli holatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish qoidalari.</p> <p>Ish jarayonida mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi talablari.</p> <p>Avariya va xavfli holatlarda tezkor ravishda texnik xizmatlarni jalb etish va rahbariyatga xabar berish tartibi.</p>
	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. Qurilish-montaj ishlarini tashkil etishda xodim ish jarayonini rejalashtirish.</p> <p>2. Material va asbob-uskunalarni tayyorlash.</p> <p>3. Ishchilarni vazifalarga taqsimlash va ishni xavfsiz hamda sifatli bajarilishini mustaqil nazorat qiladi.</p> <p>4. Loyihaga, texnik me'yorlarga va mehnat muhofazasi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.</p> <p>Mehnat harakatlari</p> <p>1. Qurilish ob'yektini yoki uning qismlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash yoki buzish bo'yicha ijro, asoslovchi va texnik hujjatlarini to'liq tayyorlashni tashkil etish va nazorat qilish.</p> <p>2. Qurilish uchastkasini belgilash va uni tayyorlash</p> <p>3. Zarur kommunikatsiyalar (elektr, suv, oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimi)ni vaqtincha o'rnatish.</p> <p>4. Brigada va ishchilarni vazifalarga taqsimlash.</p> <p>5. Qurilish ob'yektini qurilish va montaj ishlarini rejalashtirish.</p> <p>6. Ob'yektini ta'mirlash va montaj ishlarida material va texnik resurslarni rejalashtirish.</p> <p>7. Katta o'lchamli va katta gabaritli qurilish konstruksiyalarini montaj qilish ishlarini tashkil etish va boshqarish.</p> <p>8. Qurilish ob'yektining xavfsizligiga ta'sir etuvchi muhim konstruksiyalarini qurilishi va montajini nazoratini tashkil etish va amalga oshirish.</p> <p>9. Ob'yektini qurish va ta'mirlash jarayonida alohida ish turlarini jarayonlari bo'yicha nazoratni tashkil etish</p> <p>10. Qurilish va ta'mirlash jarayonida aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish tezkor choralarni rejalashtirish va amalga oshirilishini tashkil etish va boshqarish.</p> <p>11. Ob'yektlarni qurish ta'mirlashda mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi talablarini bajarilishini nazorat qilish.</p> <p>12. Avariya, favqulodda holatlar yoki ularning yuzaga kelishi xavfi mavjud bo'lgan hollarda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish.</p>
<p>E2.5- Qurilish va montaj ishlarini amalga oshirish va faoliyatini boshqarish</p>	<p>E2.01.5- Ob'yektlarni qurilish va montaj ishlariga tayyorlashni boshqarish</p>	

		Ko'nikmalar:
		Qurilish (ta'mirlash) jarayonining har bir bosqichida qurilish jarayonlarini buyurtmachining vakili yoki buyurtmachi tomonidan taklif etilgan nazorat tashkiloti vakillari ishtirokida nazoratni tashkil etishni texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish.
		Loyiha-smeta hujjatlarini o'qish va tahlil qilish.
		Chizmalarni tushunish va ular asosida rejalashtirish.
		Ish jarayonlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish.
		Ishchilarni vazifalarga to'g'ri taqsimlash.
		Tayyorgarlik ishlarining to'g'ri ketma-ketligini belgilash.
		Qurilish maydonini tekshirish va baholash.
		Qurilish (ta'mirlash) ishlarini nazorat qilish rejasini tuzish va o'zgartishlar kiritish.
		Qurilish nazorati natijalarini tahlil natijalarini qurilish me'yorlari va qoidalari, huquqiy me'yoriy va texnik me'yoriy hujjatlarga mosligini tahlil qilish
		Qurilish nazorati natijalari tahlili asosida aniqlangan nosozliklarni bartaraf etishning tezkor rejasini ishlab chiqish va ijrosini nazoratini amalga oshirish
		Qurilish ob'yekti ijro va hisob-kitoblar hujjatlarini to'liqligi va sifatini nazorat qilish.
		Qurilish nazorati bo'yicha hujjatlarni qurilish ob'yektining axborotlashgan modelida jadval va grafik shaklida aks ettirish.
		Qurilish (ta'mirlash) nazorati bo'yicha ish yozishmalarni amalga oshirish
		Ishlab chiqarish kommunikatsiyasini tashkil etish, texnik maslahatlar va yig'ilishlarni tashkil etish.
		Mehnat xavfsizligi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish
		Bilimlar:
		Asosiy qurilish materiallari, ularning xususiyatlari va qo'llanilishi.
		Qurilish va montaj ishlarining turlari, bosqichlari va ketma-ketligi.
		Loyiha-smeta hujjatlari va qurilish chizmalarini o'qish va tahlil qilish.
		Qurilishda ishlatiladigan texnika va mexanizmlarning turlari va ulardan foydalanish shartlari.
		Uskunalarni joylashtirish va xizmat ko'rsatish talablari.
		Ishchi kuchini boshqarish, smeta va xarajatlarni nazorat qilish.
		Ish vaqtini samarali tashkil etish va mehnat unumdorligini oshirish usullari.
		Ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va nazorat qilish usullari.

		<p>Qurilish va montaj (ta'mirlash) ishlari jarayonlarini nazorat qilish usullari</p> <p>Yopiq ishlar nazoratiga shaharsozlik faoliyatini texnik boshqarish va standartlashtirish bo'yicha shaharsozlik hujjatlari, standartlar va huquqiy-me'yoriy hujjatlari talablari.</p> <p>Qurilish va montaj (ta'mirlash)da ijro va hisob-kitob hujjatlarini yuritishda asosiy maxsus dasturlar va vositalar qurilish ob'yektining axborotlashgan modelida qurilish nazoratini olib borish.</p> <p>Favqulodda og'ir holatlarda tez va aniq qaror qabul qilish, mas'ul tashkilotlarni xabardor qilish. tezkor harakat qilish.</p> <p>Ish faoliyatida xavfsizlik talablariga amal qilish va ish tartibini saqlashni boshqarish.</p>
	<p>E2.02.5- Qurilish-montaj ishlarida konstruksiyalarning o'rnatilishi (montaj) jarayonini operativ boshqarish</p>	<p>Mehnat harakatlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qurilish va montaj qilinadigan konstruksiyalarning chizmalari va texnik hujjatlarini o'rganish. 2. Qurilish va montaj qilinadigan konstruksiyalarni montaj qilish uchun ish jadvalini tuzish. 3. Qurilish elementlarini yetkazib berish, saqlash va montaj maydoniga tayyorlashni boshqarish. 4. Ishchi guruhlarini tashkil qilish va vazifalarni taqsimlash. 5. Qurilish va montaj qilinadigan ishlar belgilangan texnologik ketma-ketlikda bajarilishini ta'minlashni boshqarish. 6. Ko'tarish mexanizmlarni aniq joylashtirish jarayonlarini kuzatib borish. 7. Boltlash, payvandlash va betonlash ishlari sifatiga nazorat qilish. 8. Qurilish va montaj jarayonida yuzaga kelgan muammolarga tezkor yechim topish. 9. Qurilish va montaj jarayonini hujjatlashtirish va hisobot yuritish. 10. Og'ir texnika harakati, elementlar kechikishi yoki havo sharoiti kabi omillarni hisobga olish. 11. Qurilish ob'yektini qurish jarayonida alohida ish turlarini jarayonlari bo'yicha nazoratni tashkil etish 12. Qurilish va montaj jarayonining har bir bosqichida qurilish jarayonlarini buyurtmachining vakili yoki buyurtmachi tomonidan taklif etilgan vakillari ishtirokida texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish. 13. Ishchilarni himoya vositalari bilan ta'minlash va yo'riqnoma berish. 14. Vaqtinchalik tayanchlar va qurilmalarning mustahkamligini tekshirish.

		15. Mehnat xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi ustidan nazorat.
		Ko'nikmalar:
		Ob'yektni qurish va montaj qilish ishlarini olib borish ketma-ketligini belgilash.
		Ishlab chiqarish topshirig'ini subpudratchilar o'rtasida taqsimlash
		Kalendar va tezkor rejalarni tuzish va o'zgartirishlar kiritib borish.
		Ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarilishini joriy holatini tahlil qilish va kalendar va tezkor rejaga mosligini tekshirish.
		Qurilish va montaj qilishda material texnik resurslarga ehtiyojni hisoblash.
		Material texnik resurslar ta'minoti va sarfi grafigini tahlil qilish va o'zgartirishlar kiritib borish.
		Materiallar hajmini ko'zdan kechirib, o'lchash usulida nazorat qilish.
		Qurilish ishlari ijro va hisob kitob hujjatlarini rasmiylashtirish.
		Qurilish va montaj jarayonining har bir bosqichida buyurtmachining vakili yoki buyurtmachi tomonidan taklif etilgan vakillari ishtirok etishi texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish.
		Bilimlar:
		Loyiha va ishchi hujjatlari montaj chizmalari, loyiha-meta hujjatlari, konstruksiya belgilarini o'qish va tahlili.
		Ishlarning texnologik ketma-ketligi va uning muhandislik jihatlari.
		Qurilish hajmlari va konstruksiya turlarini to'g'ri aniqlash.
		Asosiy ulash joylari, tutashmalar va mustahkamlash elementlarining konstruktiv yechimlari.
		Payvandlash, boltlash, betonlash, germetizatsiya kabi montaj operatsiyalari.
		Metall, yig'ma beton va temir-beton konstruksiyalarning turlari, xususiyatlari va ularni o'rnatish usullari.
		Yuk ko'tarish qoidalari, yukni stropovka qilish va xavfsiz ko'tarish talablari.
		Kranlar, manipulyatorlar, pod'yemniklar va montaj uskunalarning qo'llanilishi.
		Montaj ishlarida xavfsizlik texnikasi (balandlikda ishlash, kran ostida turish)
		Ishchi guruhlar uchun yo'riqnoma o'tkazish va nazorat qilish bo'yicha asosiy talablar.

		Ish vaqtini samarali taqsimlash va mehnat unumdorligini oshirish usullari.
		Ish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash usullari.
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ishni sifatli va o'z vaqtida bajarish - Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini belgilangan muddatda va standartlarga muvofiq olib borish.
		2. Qurilmalarning xavfsiz ishlashini ta'minlash, Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish jarayonida xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish.
		3. Ish jarayonini mustaqil tashkil etish va nazorat qilish — Bajarilayotgan ishlar uchun zarur asbob va materiallarni o'z vaqtida tayyorlash va ishni mustaqil boshqarish
Texnik va/yoki texnologik talab	<p>Ta'mirlash jarayonlari, texnologik ketma-ketlik va montaj ishlari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni bilishi.</p> <p>Qurilish chizmalari, smeta va loyiha hujjatlarini o'qiy olishi.</p> <p>Ta'mirlash va montaj ishlarini texnologik xaritaga muvofiq tashkil eta olishi.</p> <p>Ishchi guruh faoliyatini boshqarish, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlashi.</p> <p>Qurilish ishlari sifati, hajmi va bajarilish muddatlarini nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi.</p> <p>Zamonaviy qurilish texnikasi va asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishni bilishi.</p>	

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 26-yanvardagi 3-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0028-son xulosa, 03.02.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 30.01.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	29.01.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi

(tashkilot nomi)

Vazir o'rinbosari

D.Adilov

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hukumat topshiriqlari ijrosini ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi	Normatov Sh.N.
2	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti professori	Xabibullayev Sh.X.
3	Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti professori	Maxmatkulov T.M.
4	Xorazm qurilish va kommunal xo'jaligi texnikumi direktori	Abdullayev X.A.
5	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tarmoq kengashi kotibi	Iskandarov N.I.
6	"TREST-12" AJ 2-MKK bosh muhandisi	Najmiddinov J.N.
8	"United-building" MCHJ bosh direktori	Shahriddinov O.Sh.
9	"Murad Buildings" MCHJ kadrlar bo'limi boshlig'i	Alimov M.A.
10	"Add-estates" MCHJ kadrlar bo'limi boshlig'i	Saydaliyeva B.S.



**QURILISH, UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VA QURILISH
MATERIALLARI SANOATI SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART
METALL VA TEMIR-BETON KONSTRUKSIYALARI
MONTAJCHISI